



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG'ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 25 - yanvar

37-11-0-Q/24

Farg'ona viloyati hokimligi

### **Viloyatda ijara munosabatlarini tartibga solish hamda 2024-yilda davlat ko'chmas mulklari uchun qo'llaniladigan ijara haqining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi «Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 660-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirliklari tomonidan 2023-yil 31-dekabr kuni o'zaro kelishilgan holda tasdiqlangan 2024-yil uchun davlat ko'chmas mulki ob'ektlaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalariga muvofiq

#### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi «Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 660-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirliklari tomonidan 2023-yil 31-dekabr kuni o'zaro kelishilgan holda tasdiqlangan 2024-yil uchun davlat ko'chmas mulki ob'ektlaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini amalda foydalanish uchun qabul qilinsin.

2. Faoliyat turlariga nisbatan davlat mulkidan foydalanganlik uchun belgilangan ijara haqining eng kam stavkalarini 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat mulki ob'ektlardan samarali foydalanish markazining Farg'ona viloyat xududiy boshqarmasi mazkur ilovada ko'rsatilgan yagona eng kam miqdordagi ijara

stavkalaridan ijara haqining shartnoma qiymatini belgilashda tayanch stavka sifatida foydalansin.

3. Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon, Quvasoy shaharlari, tumanlar markazlarida hamda tuman markazlaridan tashqari Farg‘ona tumani Shoximardon MFY va Yordon MFYlar, Rishton tumani Cho‘ng‘ara MFYlarida davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi «Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 660-sonli qarorining **4-bandiga** asosan davlat mulki bo‘lgan binolar va inshootlarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish belgilansin.

5. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksning 256-moddasiga muvofiq, davlat mol-mulkini ijaraga berishda tuziladigan ijara shartnomalarida qo‘shilgan qiymat solig‘i ijaraga berilayotgan mol-mulkning soliq hisobga olinsin.

Bunda qo‘shilgan qiymat solig‘i ijaraga berilayotgan mol-mulkning xisoblangan ijara summasidan kelib chiqqan xolda xisoblanib ijara shartnomalari belgilangan tartibda rasmiylashtirilsin.

6. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari xo‘jalik yili choragida kamida bir marta, o‘zining tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini xatlovdan o‘tkazgan holda foydalanilmayotgan davlat mulki, shuningdek, ijaraga berilayotgan mol-mulkning “tiklanish qiymati” to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Davlat mulki ob‘ektlardan samarali foydalanish markazining Farg‘ona viloyat xududiy boshqarmasiga o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli taqdim etishlari uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilansin va davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berish, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va soni ataylab noto‘g‘ri qayd etilganligi, buning natijasi ijara to‘lovining yashirilishiga olib kelganligi uchun qonun hujjatlarida tegishli javobgarlik belgilanganligi haqida ogohlantirilsin.

7. Viloyat hududiy boshqarma, shahar va tuman hokimliklari:

- tasarrufidagi va quyi tuzim tashkilotlari tasarrufidagi davlat mulkini xatlovdan o‘tkazilishi va foydalanilmasdan bo‘sh turgan va/yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki (qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan,

umumiy foydalanishda bo‘lmanan balansdagi yerlar) haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo‘lgan muddatda mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko‘rsatilgan ma’lumotlarni;

- quyi tizimlari tomonidan ma’lumotlarni to‘liq va o‘z vaqtida Davlat mulki ob’ektlardan samarali foydalanish markazining Farg‘ona viloyat xududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etil

ishi ustidan idoraviy nazoratni ta’milasini.

#### 8. Kadastr agentligining Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Mashrapov):

- joriy yil 1-fevral sanasiga qadar Davlat mulki ob’ektlardan samarali foydalanish markazining Farg‘ona viloyat xududiy boshqarmasiga viloyat hududida mavjud davlat mulki ob’ektlarining yig‘ma kadastr hujjatlarini elektron holatda taqdim etsin;

- doimiy ravishda har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar mavjud davlat mulki ob’ektlaridan yig‘ma kadastr hujjatlariga o‘zgartirish (yangilangan) kiritilganlari to‘g‘risidagi hujjatlarini elektron holatda taqdim etib borsin.

9. Davlat mulki ob’ektlardan samarali foydalanish markazining Farg‘ona viloyat xududiy boshqarmasi (Eshonov) shahar va tuman xokimlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-avgustdagи “Farg‘ona viloyatida joylashgan ishlamay turgan va kam quvatli korxonalar faoliyatini tiklash, shuningdek davlat mulki ob’ektlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 672-sonli qaroriga asosan shahar va tumanlar xokimlariga foydalanilmayotgan davlat mulki ob’ektlarini (maydonlarni) ijaraga berish bo‘yicha berilgan xuquqlardan amalda foydalanishini ta’milasini.

#### 10. Davlat mulki ob’ektlardan samarali foydalanish markazining Farg‘ona viloyat xududiy boshqarmasi (Eshonov):

xatlov natijasida aniqlangan foydalanilmayotgan, bo‘sh turgan davlat mulkini belgilangan tartibda tadbirkorlik sub’ektlariga ijaraga berish ishlarini jadallashtirsin va 2024-yil 1-yanvar kunidan hisoblanishi inobatga olinsin;

ijaraga berilgan davlat mulki to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlarini har oy yakuni bilan viloyat hokimligiga, har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunigacha tegishli ravishda viloyat Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh

boshqarmasiga hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati xududiy boshqarmasiga taqdim etib borsin;

ijaraga berilgan davlat mulklari hisobidan ijara to‘lovlarini o‘z vaqtida undirish yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko‘rishga hamda to‘lovlarni undirilishiga ma’sul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

11. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev) Davlat mulki ob’ektlardan samarali foydalanish markazining Farg‘ona viloyat xududiy boshqarmasi (Eshonov) bilan birgalikda davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish hisobiga mahalliy budjetga tushadigan mablag‘larni nazoratga olsin hamda tushgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini ta’minlasin.

12. Viloyat xokimligi axborot xizmati (Jo‘raboyev) va “Farg‘ona haqiqati”-“Ferganskaya pravda” gazetalari birlashagan taxririysi mazkur qarorni rasmiy e’lon qilsin hamda viloyat xokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

13. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

14. Mazkur qarorni qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2023-yil 19-yanvardagi 13-11-0-Q/23-sonli qarori 2024-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb xisoblansin.

15. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Viloyat hokimi v.v.b**



**X.Sirojiddinov**

Farg'ona viloyat hokimining  
2024-yil 25-yanvardagi  
37-11-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

Farg'ona viloyatida joylashgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun  
2024-yilda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'loving eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)

Nº	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024-yil Farg'ona shaxarda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	2024-yil shahar va tumanlarda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (Farg'ona shaxardon tashqari) (QQS bilan birga)
<b>Ishlab chiqarish</b>			
1	Yoqilg'i ishlab chiqarish	13 800	9 740
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o'g'it mahsulotlari)	13 800	9 740
3	Neft-kimyo sanoati	13 800	9 740
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	13 800	9 740
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
6	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	11 250	8 060
7	Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	13 800	8 060
8	Sanitariya va gaz uskunalar va mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	13 800	9 740
10	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	13 800	9 740
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	13 800	9 740
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	13 800	9 740
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	13 800	9 740
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	13 800	9 740
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	43 730	31 690
<b>Qurilish sanoati</b>			
16	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	11 250	8 060
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	41 640	29 790
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	73 080	41 770
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	13 800	9 740
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	13 450	9740
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	43 730	31 690
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	30 970	22 450
<b>O'rmon, yog'ochni qayta ishslash va sellyuloza-qog'oz sanoati</b>			
23	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	13 800	9 740
24	Yog'ochni qayta ishslash sanoati	13 800	9 740
25	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
<b>Engil sanoat</b>			
26	To'qimachilik sanoati	13 800	9 740
27	Tikuvchilik sanoati	13 800	9 740
28	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
29	Engil sanoating boshqa ishlab chiqarish turlari	13 800	9 740
<b>Oziq-ovqat sanoati</b>			
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	13 800	9 740
31	Go'sht mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
32	Sut mahsulotlari sanoati	27 020	19 480
33	Baliq mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
34	Tegirmonchilik sanoati	13 800	9 740
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	11 250	8 060
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	13 800	9 740
<b>Sanoatning boshqa tarmoqlari</b>			
38	Tibbiyot sanoati	13 800	9 740
39	Poligrafiya sanoati	33 870	28 000
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimiyoiv tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishslash	16 930	11 870
<b>Qishloq xo'jaligi</b>			
41	O'simlikshunoslik 1 hektar yer maydoni uchun	5 565 680	3 986 190

42	Issiqxona xo'jaligi	10 440	8 960
43	Chorvachilik va parrandachilik	6 610	4 810
44	Baliqchiilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 hektar uchun	5 565 680	3 986 190
45	Asalarichilik 1 hektar yer maydoni uchun	3 618 040	2 591 230
46	Veterinariya xizmatlari	13 800	9 740
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	13 800	9 740
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 hektar yer maydoni uchun	5 565 680	3 986 190
<b>Transport va aloqa</b>			
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, takspark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	13 800	9 740
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 480	2 680
51	Avtomobilarni yuvish	44 660	28 110
52	Avtomobilarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	44 660	36 280
53	Avtomobilarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shaxobchalar)	54 280	39 310
54	Elektromobilarni quvvatlash shahobchasi	23 660	17 136
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	25 080	18 140
56	Pochta aloqasi	13 800	9 744
57	Kurerklik aloqasi	27 840	19 820
58	Elektr-simli aloqa	27 840	19 820
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	116 920	83 770
<b>Savdo va umumiyo'vqatlanish</b>			
60	Ulgurji savdo	38 970	28 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	100 100	71 560
62	Chakana savdo	38 970	28 000
63	Umumiyo'vqatlanish	38 970	28 000
64	Madaniy meros ob'ektlar bino va inshootlarda joylashgan savdo do'konlari	61 010	43 790
65	Madaniy meros ob'ektlar bino va inshootlarda joylashgan umumiyo'vqatlanish shoxobchalar	53 470	38 300
66	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'yalarida baliq mahsulotlari, shu jumladan, baliq taomlari savdosi, umumiyo'vqatlanishi tashkil etish*	38 970	28 000
67	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	61 010	40 430
68	Kitob do'konlari	5 450	4 030
69	Lombardlar	50 340	36 060
<b>Xizmat ko'rsatish</b>			
70	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijara qilish joylari	38 970	28 000
71	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	38 970	28 000
72	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	58 460	42 000
73	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	38 970	28 000
74	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	38 970	28 000
75	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	69 600	49 616
76	Mehmonxona ho'jaligi	44 540	31 800
77	Umumiyo'vash joylari	34 680	24 300
78	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	22 410	15 970
79	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	33 520	24 300
80	Hammomlar	67 040	47 930
81	Saunalar va basseynlar	133 630	95 760
82	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	22 380	15 900
<b>Sog'liqli saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot</b>			
83	Sog'liqli saqlash	27 840	19 820
84	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	51 270	37 180
85	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	27 840	19 820
86	Fitobar	19 250	13 770
87	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	44 540	31 800
88	Suv bo'yida plyaj zonalarini tashkil etish*	27 840	19 820
89	Baliq ovlash maskanlari*	27 840	19 820
90	Qayiqda suzish va suv sayohati bo'yicha boshqa xizmarlar ko'rsatish*	27 840	19 820
91	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'yalarida turizm xizmatlarini tashkil etish*	27 840	19 820
92	Jismoniy tarbiya va sport	13 800	9 740
93	Dorixonalar	22 380	15 900
94	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	46 860	25 200
95	Ijtimoiy-dorixonalar	19 830	12 880
<b>Ta'lim</b>			
96	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	22 410	15 900

97	O'quv kurslarini tashkil etish (IT-kurslari)	45 930	33 260
98	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	17 470	13 000
99	Bolalar umumta'lim maktablar (nodavlat ta'lim muassasalarini uchun)	11 250	8 110
100	Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	27 140	19 600
101	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy ovqatlanish	13 800	9 740
102	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalarini uchun)	9 860	7 390
103	Madaniyat va san'at	38 970	28 000
104	Ko'rgazmalar	30 040	22 510
105	Madaniyat va dam olish bog'lari	27 840	19 820
106	Botanika bog'lari va zooparklar	27 840	19 820
107	Televideniylar va radioeshittirishlar redaksiyalari	27 840	19 820
108	Kinostudiylar, ovoz yozish studiyalari	44 540	31 810
109	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	16 930	11 870
110	Avtomaktablar	24 700	14 110
<b>Moliya-kredit faoliyati</b>			
111	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	38 970	28 000
112	Auditorlik faoliyati	38 970	26 200
113	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatları bo'yicha maslahatxonalar	38 970	28 000
114	Bank faoliyati	38 970	28 000
<b>Faoliyatning boshqa turlari</b>			
115	Sug'urta va notarial xizmatlar	38 970	28 000
116	Sud va yuridik xizmat muassasalari	33 520	24 300
117	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	33 520	24 300
118	Jamoatchilik birlashmalari	11 250	7 840
119	Omborxonalar	38 970	28 000
120	Davlat tashkilotlariga ofis	16 930	11 870
121	Xususiy tashkilotlarga ofis	61 010	43 790
122	Arxiv xizmati	16 930	9 960
123	Tahririyat va nashriyotlar	22 380	15 900
124	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	22 380	15 900
125	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	22 380	15 900
126	Yengil avtomashinalar va boshqa turdag'i transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	44 540	31 800
127	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarning barcha turlari	33 870	24 520
128	Laboratoriylar	27 840	19 820
129	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	111 820	79 960
130	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yashash, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	32 940	23 850
131	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtovositalariga boshqalar)	61 010	43 790
132	Bankomatlar	557 720	399 390
133	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	38 970	24 300

Izoh: Davlat mulkini ijara berishda imtyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

\* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijara berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-sont qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Farg'ona viloyat hokimining  
2024-yil 25-yanvardagi  
37-11-0-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

**Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'loving eng kam stavkalariga  
qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar**

T/r	Ijara obyektlarining joylashgan o'rni va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan koeffitsientlar			
		Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlar xududlari bo'yicha	Tumanlar markazlari hamda Quvasoy shahar bo'yicha	Tumanlar hududlari bo'yicha (tuman markazlaridan tashqari)	Farg'ona tumani Shoximardon MFY va Yordon MFY, Rishton tumani Cho'ng'ara MFY
1.	Ijara obyektining hududiy zonalari bo'yicha koeffitsienti (Kz)	2,5	2	1,5	1,3
1.1.	Radio, uyali va peydjing aloqa antennalari o'rnatish uchun*			1,8	
2.	Ijara obyektining qurilish turi bo'yicha koeffitsient (Kq)	-	-	-	-
<b>Jumladan:</b>					
-alohida turadigan binolar uchun		2	1,5	1,5	1,3
-qo'shimcha qurilgan binolar uchun		1,5	1,4	1,4	1,2
-cherdak qismi uchun		0,4	0,4	0,4	0,3
-bolaxona qismi uchun		0,5	0,5	0,5	0,4
-tom qismi		0,5	0,5	0,5	0,4
-yarim yerto'la va aloxida yerto'la qismi uchun		0,5	0,5	0,5	0,4
2.1.	Radio, uyali va peydjing aloqa antennalario'rnatish uchun*	-	-	-	-
<b>Jumladan:</b>					
-hona uchun				1	
-bino tom qismi uchun				0,4	
3.	Tutash hududdan foydalanish koeffitsienti (texnik maydon, dehqonchilik maqsadida va xakazo) (Kh)	1	0,8	0,8	0,7
3.1.	Radio, uyali va peydjing aloqatexnik qurilmalar joylashtirilgan maydon*			1,1	
4.	Ijara obyektdan tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko) (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).	2	1,5	1,5	1,3
4.1.	Radio, uyali va peydjing aloqa antennalari o'rnatish tom qismi uchun* (Ko)			0,3	
4.2.	Radio, uyali va peydjing aloqa antennalari o'rnatish xona va texnologik maydon uchun* (Ko)			1	

\* Radio, uyali va peydjing aloqa antenna va boshqa texnik qurilmalar uchun ijara to'loving tayanch stavkasi miqdori antenna yoki boshqa texnik qurilmalarni tortqich zoqizqlari egallagan umumiy maydon bo'yicha hisoblanadi.

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'loving tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko)$$

Bunda:

Ts-bir yilga bir kv.m. uchun ijara to'loving tayanch stavkasi: Es-bir yilga bir kv.m. uchun eng kam ijara stavkasi.